

# ZAMONAVIY KREATIV YONDASHUVLAR VA KREATIVLIK TUSHUNCHASI

## MODERN CREATIVE APPROACHES AND THE CONCEPT OF CREATIVITY СОВРЕМЕННЫЕ ТВОРЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ПОНЯТИЕ КРЕАТИВНОСТИ

**Madaminova Xolidaxon Raxmatjon qizi**

*Farg'ona Davlat Universiteti*

*1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya :** Ushbu maqolada kreativlik tushunchasi, uning zamonaviy talqini va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuvlar, ta'lim va ish jarayonlarida kreativlikning o'rni ko'rib chiqiladi. Maqola bugungi kunda kreativ yondashuvlarning jamiyat va iqtisodiyotdagi ahamiyatini ochib beradi.

**Kalit so'zlar:** Kreativlik, innovatsiya, kreativ fikrlash, zamonaviy yondashuv, muammoli vaziyat, ijodiy tafakkur.

**Annotation :** This paper explores the concept of creativity, its modern interpretation, and practical significance. It highlights innovative approaches that promote creative thinking and examines the role of creativity in education and professional environments. The article also reveals how modern creative strategies influence society and the economy.

**Keywords:** Creativity, innovation, creative thinking, modern approach, problem-solving, imaginative thinking.

**Аннотация :** В данной статье рассматривается понятие креативности, его современное понимание и практическое значение. Особое внимание уделяется инновационным подходам, способствующим развитию креативного мышления, а

также роли креативности в образовании и профессиональной сфере. Работа также раскрывает значение креативных подходов в современном обществе и экономике.

**Ключевые слова:** Креативность, инновации, креативное мышление, современные подходы, решение проблем, творческое мышление.

**Kirish.** Bugungi tez o‘zgarayotgan dunyoda har bir sohada muvaffaqiyatga erishishning muhim omillaridan biri bu – kreativlikdir. Yangi g‘oyalarni ilgari surish, mavjud muammolarga noodatiy yondashuv bilan yechim topish va doimiy innovatsiyalar yaratish zamонавијат ehtiyojiga aylangan. Endilikda kreativlik faqat san’at yoki madaniyat sohalarigagina xos bo‘lmay, balki ta’lim, biznes, texnologiya va kundalik hayotda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, raqobat kuchayib borayotgan global muhitda kreativ fikrlovchi insonlar muvaffaqiyat sari odimlaydi

Kreativlik — bu faqat san’at va dizayn sohalariga xos bo‘lgan tushuncha emas. Bugungi kunda, kreativ fikrlash va ijodkorlik turli sohalarda muvaffaqiyatga erishishning asosiy vositasiga aylangan. Har bir yangi g‘oya yoki innovatsion yechim, aslida, kreativlikning ifodasi hisoblanadi. Bu, nafaqat san’atchilar va olimlar uchun, balki oddiy insonlar, ishbilarmonlar, pedagoglar va mutaxassislar uchun ham muhim sanaladi. Ular, o‘zlarining kundalik ishlarida, yangi va noodatiy yondashuvlar bilan muammolarga yechim topish, tizimlarni yaxshilash, yanada samarali ishlashga harakat qilishadi.

Kreativlikning asosiy omili — bu mavjud bilim va tajribalarni yangi shakkarda ishlatish, oldindan taxmin qilinmagan natijalarga erishishdir. Yangi g‘oyalarni yaratish jarayonida, insonlar o‘zining ongidan tashqaridagi variantlarni ham sinab ko‘rishga, xatolardan o‘rganishga tayyor bo‘lishlari kerak. Bu jarayonni oddiy "ijodkorlik"dan farq qilib, "kreativ fikrlash" deb atash mumkin, chunki bunda nafaqat san’at, balki ilmiy, iqtisodiy va texnologik sohalar ham o‘z aksini topadi.

Pedagogik ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning umumiyligi tendentsiyalari bilan chambarchas bog‘liq. Eng asosiysi, O‘zbekistonning ta’lim sohasidagi raqobatbardoshligining asosiy sharti – bu iqtisodiy rivojlanishning innovation

usuli. O‘z navbatida, kadrlar, jumladan, o‘qituvchilar tayyorlashga, ta’lim tizimini rivojlantirishga sarmoya kiritmasdan iqtisodiyotni rivojlantirish mumkin emas.<sup>1</sup>

Muayyan mavzu bo‘yicha nazariy yoki amaliy mashg‘ulot uchun o‘quv topshiriqlarini shakllantirish. Nazariy yoki amaliy mashg‘ulot uchun mo‘ljallangan o‘quv topshiriqlarining ish qog‘ozlarini tayyorlash orqali mashg‘ulotning didaktik ta’minotini yaratish. O‘quv moduli bo‘yicha aniq mavzularda keyslar to‘plamini shakllantirish. Kreativ yondashuv asosida nazariy va amaliy mashg‘ulotlar uchun didaktik ishlanmalar tayyorlash. O‘quv fanlari bo‘yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar uchun sinov topshiriqlarini tayyorlashga kreativ yondashish. Amaliy pedagogik faoliyatni tashkil etishga kreativ yondashish. O‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishga kreativ yondashish.<sup>2</sup>

Misol uchun, biznesda kreativlik kompaniyalarning o‘sishiga va raqobatbardoshligini saqlab qolishiga yordam beradi. Yangi mahsulot yoki xizmatlarni ishlab chiqish, mavjud bozorlarda yangi imkoniyatlarni izlash, kompaniya strategiyasini takomillashtirishda kreativ fikrlash muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, ta’lim sohasida ham kreativlik, talabalarni o‘qitishda, yangi pedagogik usullarni qo’llashda, o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishda alohida ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, kreativlik texnologiyada ham katta rol o‘ynaydi. Innovatsiyalar va yangi texnologik echimlar, asosan, ijodiy yondashuvlar asosida yaratiladi. Masalan, sun’iy intellekt, robototexnika va boshqa yuqori texnologiyalarning rivojlanishi kreativ fikrlash va ilmiy izlanishlar natijasida yuzaga kelgan. Odamlarning kundalik hayotida ham kreativlik katta ahamiyatga ega. Masalan, odamlar o‘z uylarida yoki ish joylarida kundalik muammolarni ijodiy usulda hal qilishlari mumkin.

Kreativlik nafaqat san’at va madaniyatda, balki barcha sohalarda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan vosita sifatida shakllanib bormoqda. Uning yordamida

<sup>1</sup>. M.O.Karimova, D.K.Rafikova B.X.Baydjanov „Pedagogik kasbiy kompetentli, kreativlik” Farg’ona 2021

<sup>2</sup>M.J.Mutalipova, M.P.Imomov Kreativ pedagogika asoslari” Toshkent 2022

insonlar yangi fikrlar yaratib, o‘zlarining kasbiy va shaxsiy rivojlanishlariga katta hissa qo‘sishlari mumkin. Shu bois, kreativlikni rivojlantirish va unga yangicha yondashuvlar qo‘llash dolzarb ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, kreativlik bugungi kunda hayotning barcha jahbalarida muhim omilga aylanmoqda. Texnologiya, kundalik faoliyat, ta’lim yoki ish jarayonida bo‘ladimi, ijodiy yondashuvlar yordamida insonlar ko‘plab muammolarga yangicha yechim topmoqda. Bu esa shuni ko‘rsatadiki, kreativlik — bu faqat san’at yoki madaniyat sohasi bilan cheklanib qolmaydigan, balki har bir insonning shaxsiy va kasbiy yutuqlariga xizmat qiladigan kuchli vositadir. Shuning uchun ham, har birimizda mavjud bo‘lgan ijodiy salohiyatni anglash va uni rivojlantirish zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyat kalitlaridan biri sanaladi.

### **Foydalanilgan adabiyolar ro’yxati**

1. I.S.Xotamov, M.K.Olimov. „Kreativ fikrlash” Toshkent 2021
2. M.J.Mutalipova, M.P.Imomov „Kreativ pedagogika asoslari” Toshkent 2022
3. M.O.Karimova, D.K.Rafikova, B.X.Baydjanov. „Pedagogik kasbiy kompetentlik, kreativlik”Farg’ona 2021